

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ISMATOV SHOHRUHBEK MUROD O'G'LI

**YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY TARAQQIYOTNI
TA'MINLASHDA MILLIY MAFKURA OMILINING ROLI
(IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Buxoro-2025

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
philosophical sciences**

Ismatov Shohruhbek Murod o‘g‘li

Yangi O‘zbekistonda ma’naviy taraqqiyotni ta’minlashda milliy mafkura
omilining roli (ijtimoiy-falsafiy tahlil)5

Исмамов Шохрухбек Мурод угли

Роль фактора национальной идеологии в обеспечении духовного
развития Нового Узбекистана (социально-философский анализ).....23

Ismatov Shohruhbek Murod ugli

Role of the national ideology factor in ensuring spiritual development
of the New Uzbekistan (socio-philosophical analysis).....45

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of works published.....50

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/27.02.2020.F.72.08 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

ISMATOV SHOHRUHBEK MUROD O'G'LI

**YANGI O'ZBEKISTONDA MA'NAVIY TARAQQIYOTNI
TA'MINLASHDA MILLIY MAFKURA OMILINING ROLI
(IJTIMOIY-FALSAFIY TAHLIL)**

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Buxoro-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Fal1151 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharipov Abduxakimjon Ziyotdinovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Choriyev Sanjarbek Anvarovich
falsafa fanlari doktori, professor

Negmatova Shaxzoda Shuxratovna
falsafa fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Urganch davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.F.72.08 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil "14" noyabr soat 16⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-29-14; faks: (65) 221-57-27, e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz)

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (748 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200114, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (65) 221-25-87.)

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "28" oktyabr kuni tarqatildi.

(2025 yil "28" oktyabr dagi 40 raqamli reyestr bayonnomasi.)



Namozov B.B.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

Muzaffarov F.D.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori, professor

Safarova N.O.

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda xavfsizlik barqarorlik sharti sifatida qaralayotgan mafkura strategik resursga aylanib, bu sohada har bir davlat o'zining ijtimoiy-madaniy xususiyatlariga mos, milliy qadriyatlar ruhida shakllangan, eng samarali institutsional modelni tanlashga intilmoqda. Siyosiy va ijtimoiy tizimning tobora o'zgacha tus olib borayotganligi, ijtimoiy taraqqiyotning mavhumligi, betartibliigi va beqarorligi muntazam o'sib borayotganligi sharoitida yangi jamiyat o'lchovlarini global miqyosda qidirish, barqarorlik va tinchlikni ta'minlashda ma'naviy taraqqiyot va mafkuraviy ta'sir muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois mafkuraning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini talqin etishda soxta ong sifatida xususiyatlovchi va ijtimoiy voqelikda insonning ma'naviy imkoniyatlarini namoyon etuvchi qadriyatlar va fazilatlar tizimi sifatida mafkuraviy doktrinalarning tamoyillari hamda ideallarini ochib berish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon ilm-fani va yetakchi ilmiy markazlarida mafkura konsepsiyalari, nazariy modellari, qadriyatlar va axloq, sotsial kogeziya va siyosiy-targ'ibot vositalarining institutsional asoslari tadqiq etilib, inson ongini boshqarish, ijtimoiy birdamlikni mustahkamlash hamda milliy o'zlikni global madaniy oqimlar ta'siridan saqlab qolish mexanizmlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro tajribalardan foydalangan holda milliy g'oya va mafkuraning ahamiyati, ichki tuzilishi va amal qilish mexanizmini tushunish, zamonaviy bosqichdagi uning o'zgarishlari o'ziga xosliklarini aniqlash, taraqqiyotdagi rolini xolis baholash jamiyat yangilanishida muhim hisoblanadi. Shu bois milliy mafkura omilini jamiyat farovonligi, iqtisodiy taraqqiyot va axloqiy barkamollik shartlari sifatida, shuningdek, mafkuraning amaliy samaradorligini formallashtirishda normativ, kommunikativ yo'nalishlarini, milliy mafkurani yangicha mazmun bilan boyitish mexanizmlarini tadqiq etish zarurati ortib bormoqda.

Mamlakatimizda inson qadri ustuvor bo'lgan ma'naviy makon, ma'rifatli jamiyat barpo etish, ijtimoiy-ma'naviy muhit sog'lomligini ta'minlash bo'yicha yangi tashabbuslar ilgari surilib, "ma'naviyat karvonlari" loyihalari asosida yoshlarning intellektual salohiyatini va ong-u tafakkurini yuksaltirishga oid chuqur islohotlar olib borilmoqda. "Yangi O'zbekiston mafkurasi – ezgulik, odamiylik, insonparvarlik g'oyasidir. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlar barqarorligini tasavvur qilamiz. Ma'naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylash va rivojlantirish, shu asosda yosh avlodni ezgulik, umuminsoniy g'oyalar ruhida voyaga yetkazish, ularda xalqimizning ma'naviy va ma'rifiy ideallariga yot bo'lgan zararli ta'sirlarga qarshi immunitetni kuchaytirish masalasi bugun har qachongidan ham dolzarbdur"¹. Yangi O'zbekistonda ma'naviy hayotning yangilanish jarayonlari va undagi sifat o'zgarishlari milliy mafkura omilining jamiyat taraqqiyotidagi mohiyati, islohotlar mazmuni bilan mafkuraviy chaqiriqlar o'rtasidagi uyg'unlikni ta'minlash, inson taraqqiyoti indeksining ijtimoiy rivojlanishga konstruktiv ta'sirini ochib berish muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

¹ Мирзиёев Ш.М. Ҳозирги замон ва Янги Ўзбекистон. - Тошкент: "O'zbekiston", 2024. - Б.261.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2019 yil 9 yanvardagi PF-5618-son “Jamiyatda huquqiy ong va huquqiy madaniyatni yuksaltirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” farmonlari, 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 23-son “O‘zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda sohaga oid boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” nomli ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Falsafa tarixida mafkura hodisasi borasidagi bilimlar A. Destyut de Trasi, K. Mangeym, N. Luman, G. Shyok singari olimlar asarlarida o‘z ifodasini topgan. D. Bell, D. Iston, T. Parsons, M. Fuko eng nufuzli tadqiqotchilar sifatida g‘oya va mafkurani taraqqiyot omili sifatida tadqiq etishgan. Mafkuraning o‘zgaruvchanligi, siyosiy ko‘rinishlari, progressiv mafkuralar ahamiyati T.Piter, F.Fukuyama, E.Uilyam, R.Dagger, tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda o‘z ifodasini topgan².

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi olimlaridan G. Musixin mafkuraning ijtimoiy ong tizimidagi o‘rnini, uni jamiyat taraqqiyotining barqarorligini ta’minlovchi ma’naviy-madaniy omil sifatida, B.F. Slavin ijtimoiy ongni shakllantirish va ijtimoiy qadriyatlarni barqarorlashtirish vositasi sifatida, M.K.Mamardashvili inson tafakkuri va gnoseologik jarayonlar bilan, B.N. Shaptalov iqtisodiy va ijtimoiy hayot bilan dialektik aloqadorligini, N.B. Bikkenin ijtimoiy boshqaruvdagi ahamiyatini, K. Burjuademov, D. Lukach, A.K. Uledov, A.A. Zinovev mafkurani tanqidiy tahlil

², Дестют де Траси, А. Основы идеологии. Идеология в собственном смысле слова. М.: Академический проект; Альма Матер, 2013. -524 с, Мангейм, К. Идеология и утопия. Диагноз нашего времени. М.: Юрист, 1994. – 448 с., Луман, Н. Социальные системы. Очерк общей теории. СПб.: Наука. 2007. - 648 с., Шёк, Г. Зависть: теория социального поведения. - М.: ИРИСЭН, 2010. – 745 с.; Белл, Д. Грядущее постиндустриальное общество. - М.: Academia, 2004. – 332 р., Easton, D. A Systems Analysis of Political Life, New York: Wiley, 1965. – 456 р. Парсонс, Т. Система координат действия и общая теория систем действия: культура, личность и место социальных систем // Американская социологическая мысль. М.: Изд-во МГУ. 1994. – 234 р., Фуко, М. Слова и вещи. Археология гуманитарных наук. СПб.: Acad, 1994. – 543 с.; Peter T. The relationship between ideology and changing family policies in France, the United Kingdom and Spain. PhD Thesis. –Loughborough University, 1999. - 324 p.; Fukuyama F. The End of History and the Last Man. –New York: “A Division of Macmillan, Inc.”, 1992. - 418 p.; Easterly William. The Ideology of Development //Foreign Policy; Washington, 161, (Jul/Aug 2007): 31-35 p.; Terence Ball, Richard Dagger, Daniel I. O’Neill. Ideals and Ideologies: A Reader. –New York: “Routledge”, 2016. - 496 p.

qilib, uni ijtimoiy jarayonlarning konstruktiv va destruktiv tomonlari bilan bog‘laganlar. V.Minakov, A.V.Loginov, Y.V.Smirnova, L.A.Kalinin postindustrial jamiyatga mafkuraviy muammolarning zamonaviy yechimlari borasida izlanganlar³.

O‘zbekistonlik olimlar orasida mafkura fenomenini o‘rganishga S.Otamuratov, B.To‘ychiyev, I.Saifnazarov, M.Quronov, I.Ergashev sezilarli ishlar olib borganlar. Yangi O‘zbekistonda mafkuraning o‘rni va ahamiyatiga oid masalalar A.Erkayev ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan. Jamiyat taraqqiyoti jarayonlarining mafkuraviy omillar bilan uzviy bog‘liqligi, milliy g‘oyaning ijtimoiy hayotdagi yo‘naltiruvchi kuch sifatidagi roli masalalari O.Bozorov, E.Xoliqov, J.Yaxshilikov, N.Muhammadiyev, S.Choriyev, Sh.Negmatova hamda A.Sharipov, M.Xajiyeva, N.Teshayev ilmiy izlanishlarida chuqur yoritilgan. Shu bilan birga, Yangi O‘zbekiston fenomeni, milliy taraqqiyot strategiyalarining zamonaviy jamiyat hayotidagi o‘rni, milliy g‘oya tamoyillarining inson va jamiyat tafakkurini yangilashdagi ahamiyati hamda mafkuraviy faoliyatning ijtimoiy rivojlanishdagi o‘rniga oid dolzarb masalalar Q.Nazarov va Q.Quranbayevlarning tadqiqotlarida alohida falsafiy va metodologik yondashuvlar asosida ochib berilgan. Ularning qarashlari bugungi mafkuraviy islohotlar konsepsiyasini chuqurroq anglash, milliy g‘oyaning ijtimoiy tizimdagi integrativ ahamiyatini aniqlash uchun muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi⁴. S.Mamashokirov, N.Xakimov, O‘.Abilov, M.Bekmurodov ishlarida mafkuraning nazariy va amaliy masalalari o‘z aksini

³ Мусихин.Г.И. Очерки теории идеологии. М.: Изд. Дом “Высшей школы экономики”, 2013.- 445 с., Славин, Б.Ф. Идеология возвращается. М.: «Социально-гуманитарные знания». 2009. – 342 с., Мамардашвили.М.К. Необходимость себя. М.: Наука, 1996. – 154 с., Шапталов.Б.Н. дегредация и деграданты: История социальной дегредации и механизмы ее преодоления.М.: ЛЕНЕНД. 2014. – 256 с., Биккенин Н. Социалистическая идеология., Политиздат, 1983, - 413 с., Буржуадемов. К. Очерки растущей идеологии. - Л.: Эхо, 1974. – 355 с., Лукач, Д. К онтологии общественного бытия. - М.: Прогресс, 1991. – 371 с., Уледов, А.К. Общественная психология и идеология. - М.: Мысль, 1985. – 272 с., Зиновьев, А. А. Постсоветизм // Вестник РФО. 2006. № 1. - с. 80.; Минаков В.А. Место патриотизма в российской национальной идее: социально-философский анализ. диссерт. кандидат философских наук. –Горно-Алтайск, 2009. –148 с.; Логинов А.В. Идеология как проблема социальной онтологии. диссерт. кандидат философских наук. –Екатеринбург, 2004. –136 с.; Смирнова Е.В. Концепт идеологии в социально-философской мысли. диссерт. кандидат философских наук. – ФГБОУ ВО «Московский государственный университет имени М.В. Ломоносова», 2016. –147 с.; Калинин Л.А. Деструктивная идеология как социальный феномен: социально-философский анализ. диссерт. кандидат философских наук. –Нижний Новгород, 2007. –200 с.

⁴ Отамуродов С. Глобаллашув: миллатни асраш масъулияти. –Тошкент: “O‘zbekiston”, 2018. –352 б.; Тўйчиев Б. Политическая культура и демократизация общества. –Тошкент, 2010. –282 с.; И. Саифназаров, Б. Косимов, А. Мухторов, Г. Никитченко. Фаннинг фалсафий масалалари. - Т., «Fan va texnologiya». 2007, 240 бет.; Куронов М. Бизни бирлаштирган ғоя. –Тошкент: “Ғафур Ғулом нашриёт-матбаа ижодий уйи”, 2016. –348 б.; Эргашев И. Жамиятни демократлаштириш ва миллий ғоя. –Тошкент: “Akademiya”, 2007. –68 б.; Эркаев А. Янги Ўзбекистон: мўлжал – Учинчи Ренессанс. –Тошкент: “Маънавият”, 2021. –96 б.; Бозоров О. Миллий ғоя ва тарғибот самарадорлиги. –Тошкент: “Маънавият”, 2018. –32 б.; Холиқов Э. Миллий ғоя ва мафкура - ижтимоий тараққиёт омили. –Фарғона: “Фарғона”, 2016. –128 б.; Яхшиликков Ж.Я., Мухаммадиев Н.Э. Миллий ғоя - тараққиёт стратегияси. –Тошкент: “Фан”, 2017. –424 б.; Sharipov A.Z. Yangi O‘zbekiston jamiyati taraqqiyoti ideosferasidagi ma’naviy o‘zgarishlar dinamikasi/Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari 4-jild, 7-maxsus son (Sentyabr, 2024). –67-72 b.; –B.60–64., Choriyev A., Choriyev S.A., Renessans davri. Yevropa falsafasi. Tafakkur qanoti. 2015. – B.112., Негматова Ш., Орипов Х. В. Влияние глобальных кризисов на духовность человека //Достижения науки и образования. 2018. №. 10 (32)., Khajieva M.S. (2019). Philosophical essence of humanistic ideas of our thinkers. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 4(2), – P. 253–268; Тешаев Н.Н. Фукаролик жамиятини ривожлантиришнинг маънавий омиллари ва мафкуравий тамойиллари. Монография. – Т.: 2023. –Б. 160.,Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 1-китоб. –Тошкент: “Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2023. –920 б.; Назаров Қ. Жаҳон фалсафаси қомуси. 2 китоб. –Тошкент: “Ўзбекистон Файласуфлари миллий жамияти” нашриёти, 2023. –856 б.; Қуранбаев Қ. Янги Ўзбекистон: миллий ривожланишнинг янги. –Тошкент: “Akademiya”, 2023. –204 б.;

topgan⁵.

Dissertatsiyani tayyorlash jarayonida yuqorida keltirilgan va boshqa ko'plab o'zbek hamda jahon olimlarining ilmiy izlanishlari hisobga olindi. Tanlangan muammo yuzasidan o'rganilgan adabiyotlar va manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mafkura faqat siyosiy yoki g'oyaviy tizim doirasida emas, balki ijtimoiy ongni shakllantiruvchi, ma'naviy muhitni mustahkamlovchi hamda jamiyatda barqarorlik, totuvlik va birdamlikni ta'minlovchi falsafiy kategoriya sifatida ham alohida o'rin tutadi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur dissertatsiyada ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashda mafkuraviy bilimlarni tizimlashtirish, ularni konseptual darajada asoslash hamda Yangi O'zbekiston jamiyatida ularning ijtimoiy-falsafiy mohiyatini tahlil etish zarurati inobatga olingan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq II band "Yangi O'zbekistonda ma'rifatparvar davlat barpo etishning ijtimoiy-falsafiy va ma'naviy-axloqiy asoslarini takomillashtirish muammolari" (2022-2026 yy.) tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Yangi O'zbekistonda zamonaviy islohotlar sharoitida milliy mafkuraning ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashdagi o'rnini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ma'naviy taraqqiyot va milliy mafkura tushunchalarining falsafiy talqinlari, o'ziga xos xususiyatlari va dialektik aloqadorligini ochib berish;

Sharq va G'arb mutafakkirlarining mafkuraning jamiyat taraqqiyotidagi o'rniga oid qarashlarini tahlil qilish;

mafkuraning ijtimoiy taraqqiyotdagi funksional xususiyatlari va konstruktiv ahamiyatini asoslab berish;

mafkuraning iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlanishning yo'naltiruvchi omili sifatidagi rolini ochib berish;

Yangi O'zbekistonda strategik islohotlarning mafkuraviy hayotga konstruktiv ta'sirini asoslash hamda ma'rifiy jamiyatni barpo etishda mafkurani takomillashtirish imkoniyatlari aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida ma'naviy taraqqiyotning falsafiy, ijtimoiy va mafkuraviy asoslari hamda Yangi O'zbekistonda ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash jarayoni tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti O'zbekistonda milliy mafkuraviy omilning ijtimoiy-falsafiy xususiyatlari, uning ma'naviy taraqqiyotga ko'rsatadigan falsafiy-huquqiy, ijtimoiy-madaniy asoslari hamda amaliyotga tatbiq etish mexanizmlarini tadqiq etishdan iborat.

⁵ S.Mamashokirov, Sh.Tog'ayev. Erkin va farovon hayot qurilishining g'oyaviy-mafkuraviy masalalari. T. Ma'naviyat, 2007. – 80 b.; N.Hakimov. Shaxsning siyosiy madaniyati. T. O'zbekiston, 1991. – 76 b.; O'.Abilov. Milliy g'oya Ma'naviy omillar. T. Ma'naviyat, 1999. – 30 b.; Bekmurodov.M. O'zbekistonda jamoatchilik fikri. T. Fan, 1995. – 76 b.;

Tadqiqot usullari. Dissertatsiyada analiz va sintez, kompleks yondashuv, tizimli-funksional yondashuv, kontent analiz, retrospektiv tahlil, dialektik, sinergetik tahlil kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mafkuraning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini talqin etishda soxta ong sifatida xususiyatlovchi (haqiqatni biryoqlama talqin qilish, manfaatdor guruhlar ustunligini legitimlovchi ideologik konstruksiyalar) va ijtimoiy voqelikda insonning ma'naviy imkoniyatlarini namoyon etuvchi (qadriyatlar va fazilatlar tizimi, vatanparvarlik, mas'uliyat) sifatidagi yondashuvlar asosida fuqarolik burchi, qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolat, ekologik mas'uliyat kabi tamoyillari hamda ma'rifiy jamiyat, barkamol shaxs, farovonlik, tinchlik kabi ideallarni amalga oshirish mexanizmlari ochib berilgan;

ijtimoiy voqe'likning "mafkuralashgan qiyofasi"da jamiyat farovonligi iqtisodiy taraqqiyot va axloqiy barkamollik bilan emas, balki qadriyatlar-orzular-maqсадlarga sodiqlik darajasi bilan shartlanishi, voqelikka joriy etilmagan orzular va mo'ljallar mafkurani "ilohiylashtirish", "qahramonlashtirish", "begona" mafkuralarni qoralash va dohiylik kultlarini yaratish kabi xususiyatlari aniqlashtirilgan;

mafkuraning amaliy samaradorligini formallashtirishda normativ (maqsadni huquqiy-institutsional normaga aylantirish), kommunikativ (ochiq muloqot va kelishuv orqali ijtimoiy konsensusga erishish), indikatorli boshqaruv (inson taraqqiyoti indeksi, adolat mezonlari) shiorni ko'rsatkichga, g'oyani amaliy natijaga aylantirishi hamda sodiqlik kapitali (fuqarolik ishtiroki, siyosiy e'tiqod, islohotlarga daxldorlik) va raqamli axloqiy kompetensiya (mediamuhitda qadriyatlarga tayanish, huquqiy va xavfsiz munosabat, inklyuzivlik) uni real taraqqiyot drayveriga olib chiqishi isbotlangan;

Yangi O'zbekistonda integratsion yondashuv asosida mafkura strategik islohotlarning mazmunini "maqsad – vazifa – natija" prinsipi asosida takomillashtirishi, ma'rifiy jamiyatni barpo etishda "bilim – axloq – mas'uliyat" prinsipini amaliyotga tatbiq etishi, islohotlar va mafkuraviy chaqiriqlar mosligini ta'minlashi, ijtimoiy ishonch va daxldorlikni kuchaytirishi, inson taraqqiyoti indeksining konstruktiv ta'sirini kengaytirishi hamda hayotdan qoniqish ko'rsatkichlarida barqaror o'sishni ta'minlashi asoslab berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

milliy mafkuraning ma'naviy taraqqiyotdagi falsafiy-konseptual ahamiyati mafkuraning ijtimoiy amaliyot bilan bog'liqligida namoyon bo'lishi, rivojlanish strategiyalarida milliy mafkuraning integrativ funksiyasini kuchaytirish yoshlarni global tahdidlardan himoya qilish va ularning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishda muhimligi asoslab berilgan;

O'zbekistonda mafkuraviy islohotlarning obyektiv omillari (global axborot, sivilizatsion integratsiya, milliy davlatchilik konsepsiyasi) va subyektiv omillari (ma'naviy qadriyatlarga munosabati, ijtimoiy ongning o'zgarishi) asosida milliy mafkurani takomillashtirishning davlat va jamiyat institutlarini hamkorligini kuchaytirish, ma'naviy-mafkuraviy monitoring tizimini ishlab chiqish, samaradorligini baholash kabi ustuvor yo'nalishlari aniqlashtirilgan;

milliy mafkura omilini “inson qadri – ijtimoiy barqarorlik – ma’naviy taraqqiyot” tamoyili asosida amaliyotga tatbiq etishning institutsional (ijtimoiy ong’dagi mafkuraviy tendensiyalar va xavflarni muntazam monitoring qilish), pedagogik-uslubiy (yoshlarda tanqidiy fikrlash va media savodxonlikni rivojlantirish uchun metodik qo‘llanmalar tayyorlash, “ustoz–shogird” asosida ma’naviy-mafkuraviy tarbiya dasturlarini ishlab chiqish) mexanizmlarini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo‘llanilgan nazariy qarashlar, tadqiqot usullari va yondashuvlar rasmiy manbalar, faktlar, statistik ma’lumotlarga murojaat qilingan holda olinganligi, tushuncha definitsiyasi ilmiy tadqiqot metodologiyasi va mantiq talablariga amal qilgan holda ishlab chiqilganligi, nashr etilgan ilmiy maqolalar, respublika va xalqaro konferensiyalarda sinovdan o‘tkazilganligi, tadqiqot ishi natijalari bo‘yicha berilgan xulosalar asosida takliflar ishlab chiqilib, tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati milliy mafkura omilining Yangi O‘zbekistonda ma’naviy taraqqiyotdagi o‘rnini tadqiq qilishda, mafkuraviy jarayonlarni differensial yondashuv asosida turkumlashtirish, ularning milliy va mintaqaviy xususiyatlarini ochib berishda, shuningdek, milliy mafkurani ma’naviy taraqqiyotning konseptual asoslari bilan bog‘liqlikda o‘rganish, milliy qadriyatlar va ijtimoiy ong integratsiyasini ta’minlash faoliyatida, milliy mafkura omilining Yangi O‘zbekistonda ma’naviy taraqqiyotdagi o‘rnini falsafiy-nazariy asosda tadqiq etishda nazariy-metodologik asos sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda keltirilgan nazariy umumlashmalar va amaliy takliflardan milliy mafkurani ma’naviy taraqqiyot jarayonlariga izchil tatbiq etishning institutsional, pedagogik-uslubiy, axborot-kommunikativ va innovatsion mexanizmlarini ishlab chiqishda, ta’lim muassasalari uchun dasturlar va metodik tavsiyalar, OAV va raqamli platformalarda milliy qadriyatlarni targ‘ib etish yo‘llari, shuningdek, yoshlar ongida mafkuraviy immunitetni shakllantirish usullari, ma’naviy-ma’rifiy siyosat, yoshlar tarbiyasi, ta’lim tizimi va raqamli madaniyatni rivojlantirish jarayonlariga joriy etilishi mumkin bo‘lgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda, shuningdek, mavzuga oid sotsiologik, maxsus, ilmiy tadqiqotlar hamda boshqa turdagi tadqiqotlar va so‘rovlar o‘tkazishda, talabalar bilan uyushtiriladigan davra suhbatlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yangi O‘zbekistonda ma’naviy taraqqiyotni ta’minlashda mafkura omilining rolini tadqiq etish jarayonida olingan ilmiy natijalar asosida:

mafkuraning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyatini talqin etishda soxta ong sifatida xususiyatlovchi (haqiqatni biryozlama talqin qiladigan, manfaatdor guruhlarining g‘oyaviy ustunligini legitimlovchi ideologik konstruksiyalar) va ijtimoiy voqelikda insonning ma’naviy imkoniyatlarini namoyon etuvchi qadriyatlar va fazilatlar tizimi (vatanparvarlik, mas’uliyat) sifatidagi yondashuvlar asosida mafkuraviy doktrinalarda ustuvor bo‘lgan fuqarolik burchi, qonun ustuvorligi,

ijtimoiy adolat, ekologik mas'uliyat kabi tamoyillar hamda ma'rifiy jamiyat, barkamol shaxs, farovonlik, tinchlik kabi ideallarni amalga oshirish mexanizmlariga oid ilmiy yangiliklar va xulosalardan Buxoro davlat universitetida bajarilgan PZ-202005236-raqamli "Oila psixologiya fanidan multimedia mahsulotlarini yaratish" (2021-2022-yy) innovatsion loyiha doirasida belgilangan asosiy vazifalarni bajarishda foydalanilgan (Buxoro davlat universitetining 2025-yil 11-sentyabrdagi 01-11-05/5500-son ma'lumotnomasi). Natijada, grant loyihasini yanada takomillashtirishga va fanlararo yondashuvning murakkab tizimlarini tadqiq etishda, yosh mutaxassislar va olimlarning kasbiy malakasini egallashidagi nazariy metodologik ahamiyati, uning ilmiy-proyektiv loyihalashtirish prognozlashtirish va amaliy texnologik jarayonlardagi o'rini belgilashga xizmat qilgan;

ijtimoiy voqe'likning "mafkuralashgan qiyofasi"da jamiyat farovonligi iqtisodiy taraqqiyot va axloqiy barkamollik bilan emas, balki qadriyatlar-orzular-maqсадlarga sodiqlik darajasi bilan shartlanishi, voqelikka joriy etilmagan orzular va mo'ljallar mafkurani "ilohiylashtirish", "qahramonlashtirish", "begona" mafkuralarni qoralash va dohiylik kultlarini yaratish kabi xususiyatlari oid ilmiy umumlashma va tahlillardan O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasining 2025-2029 yillarga mo'ljallangan saylovoldi dasturida keltirilgan "I. Davlat hokimiyati va boshqaruvini yanada demokratlashtirish, ma'naviy barkamol fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari"da keltirilgan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi Markaziy kengashining 2025-yil 17-sentyabrdagi 02/01-87-son ma'lumotnomasi). Natijada, ijtimoiy ongni shakllantirish, fuqarolarning davlat siyosatidagi ishtirokini kuchaytirish, jamiyatda ijobiy ijtimoiy muhit yaratish borasidagi harakatlarda qo'llanilib, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta'minlashda, jumladan, partiya a'zolari va xodimlari uchun tashkil etilgan siyosiy-ma'rifiy treninglar, mafkuraviy targ'ibot tadbirlari, huquqiy savodxonlikni oshirishga qaratilgan metodik ishlanmarning mazmunini boyitishga xizmat qilgan.

mafkuraning amaliy samaradorligini formallashtirishda normativ (maqsadni huquqiy-institutsional normaga aylantirish), kommunikativ (ochiq muloqot va kelishuv orqali ijtimoiy konsensusga erishish), indikatorli boshqaruv (inson taraqqiyoti indeksi, adolat mezonlari) shiorni ko'rsatkichga, g'oyani amaliy natijaga aylantirishi hamda sodiqlik kapitali (fuqarolik ishtiroki, siyosiy e'tiqod, islohotlarga daxldorlik) va raqamli axloqiy kompetensiya (mediamuhitda qadriyatlarga tayanish, huquqiy va xavfsiz munosabat, inkluzivlik) uni real taraqqiyot drayveriga olib chiqishga oid ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining targ'ibot faoliyatidagi loyihalar va ssenariylar tayyorlashga, jumladan, 2025-yil uchun chora tadbirlar dasturining II yo'nalishi 16-band "Yoshlarni umummilliy g'oyalar ostida birlashtirish, targ'ibot ishlarini kreativ usullarda amalga oshirish, ijtimoiy faol, huquqiy-siyosiy, iqtisodiy savodxon yoshlarni mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarga daxldorligini oshirish maqsadida "Yangi kuch" – yosh ma'rifatparvarlar harakati klubini tashkil qilish" mavzusida o'tkazilgan targ'ibot ishlarini tashkil etish va o'tkazishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2025-yil 10-sentyabrdagi 10/568-son ma'lumotnomasi).

Natijada, mamlakatimizda yoshlar muomala madaniyatini rivojlantirishda ma'naviy-axloqiy imperativlarning o'rnini o'rganishga xizmat qilgan;

Yangi O'zbekistonda integratsion yondashuv asosida mafkura strategik islohotlarning mazmunini "maqsad – vazifa – natija" prinsipi asosida takomillashtirishi, ma'rifiy jamiyatni barpo etishda "bilim – axloq – mas'uliyat" prinsipini amaliyotga tatbiq etishi, islohotlar va mafkuraviy chaqiriqlar mosligini ta'minlashi, ijtimoiy ishonch va daxldorlikni kuchaytirishi, inson taraqqiyoti indeksining konstruktiv ta'sirini kengaytirishi hamda hayotdan qoniqish ko'rsatkichlarida barqaror o'sishni ta'minlashiga oid ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalardan Buxoro viloyati teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil davomida efirga uzatilgan ijtimoiy-ma'rifiy ko'rsatuv va dasturlari, jumladan, "Farovonlik sari", "Maxsus reportaj" ko'rsatuvlari ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan (Buxoro viloyati teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 4-sentyabrdagi 01-09-208-son ma'lumotnomasi). Natijada, ijtimoiy ongni shakllantirish, fuqarolarda farovon hayotga intilish ruhini kuchaytirish, davlat siyosatining insonparvarlik tamoyillarini keng jamoatchilikka yetkazishda muhim ahamiyat kasb etib, bu borada olib borilayotgan ishlar samaradorligini yanada kuchaytirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 6 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola (4 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 157 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning "**Kirish**" qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi tavsiflangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti, predmeti, tadqiqotda qo'llanilgan usullar yoritilgan. Shuningdek, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan hamda dissertatsiya natijalarining joriy qilinishi, aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Ma'naviy taraqqiyot va mafkura omilining dialektik aloqadorligini tadqiq etishning nazariy-metodologik asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida mafkura, ma'naviy taraqqiyot tushunchalarining o'ziga xos xususiyatlari va dialektik aloqadorligi, ma'naviy inqiroz sharoitida mafkuraning

konstruktiv ahamiyati, Sharq va G'arb mutafakkirlarining mafkuraning jamiyat taraqqiyotidagi o'rniga oid qarashlari ochib berilgan.

Insonni buzuqlik va ma'naviy qashshoqlikdan qutqaradigan, yot ma'naviyatning yoyilishiga qarshi turadigan yangi mafkura, albatta, bunda insonning ma'naviy barkamolligi ustuvor bo'lib turgan mafkura yaratilishi lozim. Zero, sodir bo'layotgan voqealar rivojini kuzatish kishiga dunyoda kechayotgan tabiiy, madaniy-ma'rifiy, siyosiy va boshqa sohalaridagi islohotlar jarayonlarini tanqidiy tahlil qilish asosida xulosa chiqarish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu haqida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Jahon tarixiga nazar solsak, har bir xalq, avvalo, ma'naviy birlashuvi, milliy g'oyasi bilan yuksalgan. Bugungi yangi hayot qurish, rivojlangan davlatlar qatoriga chiqish yo'lidan borayotgan mamlakatimizda ham milliy g'oya masalasi juda muhim ahamiyatga ega"⁶ – deb ta'kidlaydi.

Dissertatsiyada mafkuralar jamiyatning ma'naviy negizini tashkil etishi, dunyoqarashni shakllantirishi, inson hayotiy pozitsiyalari va amallariga yo'nalish berishi asoslangan. Ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishda, guruhlar va sinflar o'rtasidagi ziddiyatlarni hal qilishda, ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydigan mafkuralar siyosiy partiyalar va harakatlarning faoliyatida, davlat siyosatida o'z aksini topadi. Ular orqali hokimiyat o'zining legitimligini mustahkamlaydi, o'z siyosatini asoslaydi va ommaviy qo'llab-quvvatlashga erishadi.

Tadqiqotchi fikricha, mafkuraning istiqboli – bu avvalo, insoniyatning o'z istiqbolidir. Kelajak mafkurasi insonparvarlik, adolat, barqarorlik va taraqqiyot tamoyillariga asoslanishi lozim. U insonning erkinligi va farovonligini, sayyoramizning ekologik muvozanatini ta'minlashga qaratilgan bo'lishi kerak. Uning asosiy strukturaviy tarkibini qadriyatlar, ideallar va g'oyalar majmuasi, shuningdek, uning ijtimoiy voqelikka ta'sir etuvchi vositalari (ta'lim, ommaviy axborot vositalari, siyosiy institutlar, madaniy-ma'rifiy markazlar) tashkil etadi. Soxta ong (masalan, mafkuraviy manipulyatsiyalar, bir yoqlama g'oyalar) va real ma'naviy imkoniyatlar (qadriyatlar tizimi, fazilatlar, insoniy ideallar) odatda mafkuraviy doktrinalar, davlat dasturlari, ijtimoiy institutlari orqali amaliyotga tatbiq etiladi.

Jamiyatda umuminsoniy qadriyatlar va ideallarni shakllantirish, inson jismoniy va ma'naviy imkoniyatlarini faollashtirish hamda soxta ong orqali paydo bo'ladigan mafkuraviy xatarlarni bartaraf etish taraqqiyotni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu orqali jamiyatda barqarorlik, birlik va ma'naviy taraqqiyot ta'minlanadi. Qadriyatlar va ideallar amalga oshirilgani sayin inson ma'naviy kamoloti kuchayadi. Soxta ong va haqiqiy ma'naviy imkoniyatlar o'rtasidagi farq ochilib, ijtimoiy faoliyatda to'g'ri yo'nalish tanlanadi. Ushbu yondashuv mafkurani faqat g'oyaviy instrument emas, balki ma'naviy taraqqiyotning strategik mezon sifatida talqin qilish imkonini beradi.

⁶ Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. 5-jild. – Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2023. – B.261.

Dissertatsiyada mafkura nafaqat g'oyalar tizimi, balki ma'naviy-axloqiy taraqqiyotning strategik mezon sifatida tahlil etilgan. Mazkur ilmiy qarash mafkuraning ijtimoiy-falsafiy tahlilida yangi paradigmani vujudga keltiradi: u jamiyat taraqqiyotida ham soxta ongni ochib beruvchi tahlil vositasi, ham inson ma'naviy imkoniyatlarini amalga oshiruvchi qadriyatlar tizimi sifatida ikki qirrali mohiyatga ega bo'ladi. Chunki, A.Gramshi "mafkura" va "gegemoniya" tushunchalari orqali mafkurani faqat yolg'on va soxta ong sifatida emas, balki ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka xizmat qiluvchi, madaniyat orqali faol tarqatiluvchi tizim deb ko'rsatadi. Uning fikriga ko'ra, mafkura – bu "praktika, prinsip va dogmalar maydoni"⁷dir. Mafkuraviy doktrinalardagi ustuvor g'oyalarning amalga oshirilishi esa davlat va fuqarolik institutlari orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Mafkura jamiyat taraqqiyotining strategik "ma'naviy infratuzilmasi" bo'lib, umumiy maqsad va qadriyatlar atrofida safarbarlikni vujudga keltiradi. U ikki qirrali: bir tomondan, manipulyatsiya xavfini (soxta ong) bartaraf etishni talab qiladi, ikkinchi tomondan esa insonning ma'naviy imkoniyatlarini ro'yobga chiqaradigan qadriyat va fazilatlar tizimini shakllantiradi. Shu bois, mafkura davlat siyosatini, fuqarolik jamiyatini, ta'lim va OAVni ochiqlik, axborotga tayangan qaror va inson qadri tamoyillari asosida uyg'unlashtirgandagina taraqqiyotga xizmat qiladi, ijtimoiy barqarorlik mustahkamlanadi, inson kapitali o'sadi va adolat mezonlari kuchayadi. Yangi O'zbekiston sharoitida esa mafkuraning bosh vazifasi — milliy va umuminsoniy qadriyatlarni uyg'unlashtirib, yoshlarda ma'naviy immunitet hamda innovatsion tafakkurni kuchaytirishdir.

G'arb o'rta asr falsafasida "g'oya" konsepsiyasi diniy mohiyatga ega bo'lgan narsalarning aksi sifatida tushunilgan bo'lsa, XVII-XVIII asrlarda inson idroki usullari tajribaviylik va aqlga asoslanganlik (empirizm va ratsionalizm) nuqtai nazaridan izohlangan⁸. G'oya tushunchasidan farqli o'laroq, mafkura tushunchasi sof ijtimoiy yoki ijtimoiy-siyosiy sohaga oid tushunchadir. Ayrim hollarda "mafkura" atamasi "ideologiya" atamasining sinonimi sifatida ham qo'llaniladi. Hozirgi falsafiy va ijtimoiy-siyosiy adabiyotlarda ham ideologiya yoki mafkura tushunchalari xususida turli-tuman ta'rif va tavsiflardan eng e'tiborlilari sifatida bir qancha ta'riflarni qayd etib o'tish mumkin⁹. Mafkura tushunchasi asosan siyosiy tusga ega bo'lib qoldi hamda ko'proq salbiy ma'noda qo'llaniladigan bo'ldi, chunki mazkur hodisa yakkahukmronlik, majburlash va bosim o'tkazishga taqqoslanadi.

Sharq mutafakkirlarining ta'limotida inson qalbi tarbiyasiga alohida e'tibor qaratiladi. Axloqiy poklik, mehr-oqibat, adolatparvarlik kabi fazilatlar har bir insonning ichki olamida shakllanishi va rivojlanishi lozim deb hisoblangan. Chunki faqat shu yo'l bilan jamiyatda o'zaro hurmat, ishonch va hamjihatlik muhitini yaratish mumkin. Ma'naviy yetuklikka erishgan inson o'z manfaatlaridan ko'ra jamiyat manfaatlarini ustun qo'yadi, el-yurt ravnaqi yo'lida fidoyilik ko'rsatadi.

⁷ Gramshi A. Prison. Noutbooks. / Transcribed from the edition published by Lawrence & Wishart. – London, 1971. – P. 844.

⁸ Ғарб фалсафаси. / Тузувчи ва масъул муҳаррир Қ.Назаров. – Тошкент: "Sharq", 2004. – Б. 720

⁹ Qarang: Destutt, A. de Tracy. Elements d' Ideologie. – Paris, 1827

Sharq mutafakkirlarining ma'naviy taraqqiyot haqidagi qarashlari Yangi O'zbekistonning mafkuraviy siyosati uchun bebaho merosdir. Ma'naviy yuksalishga intilish orqali biz jamiyatda adolat, tinchlik va farovonlikni ta'minlashimiz, shuningdek, yurtimizni jahon hamjamiyatida munosib o'rin egallashiga erishishimiz mumkin. Zamon sinovlaridan o'tgan bu qadriyatlar Yangi O'zbekistonning kelajakdagi yuksalishida muhim rol o'ynaydi.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, mafkura va ma'naviy taraqqiyot tushunchalari o'ziga xos xususiyatlarga ega va o'zaro dialektik aloqada bo'ladi. Mafkura insonparvarlik tamoyillariga asoslangan bo'lsa, u insonlarning ma'naviy kamol topishi uchun qulay sharoit yaratadi. Tolerantlik, adolat, bilim olishga intilish kabi qadriyatlarni targ'ib qiluvchi mafkura insonlarga o'zlarining salohiyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Aksincha, agar mafkura dogmatik, murosasiz va inson erkinligini cheklovchi bo'lsa, u ma'naviy taraqqiyotga to'sqinlik qiladi. Shu bilan birga, ma'naviy taraqqiyot ham mafkuraga ta'sir etadi. Ma'naviy jihatdan yetuk insonlar mafkurani tanqidiy baholashga, uni insonparvarlik tamoyillari asosida takomillashtirishga qodir bo'ladilar. Ular adolat, erkinlik va tenglik kabi qadriyatlarni himoya qilib, jamiyatning mafkuraviy asoslarini rivojlantirishga hissa qo'shadilar. Ma'naviy rivojlangan jamiyat, mafkuraviy xilma-xillikni qabul qila oladi va murosaga tayyor bo'ladi. Demak, mafkura jamiyat uchun yo'nalish beradi, ma'naviy taraqqiyot esa insonlarga bu yo'nalishni to'g'ri tanlashga va undan oqilona foydalanishga yordam beradi. Jamiyatning barqaror va farovon rivojlanishi uchun mafkura va ma'naviy taraqqiyot o'rtasidagi muvozanat insonlarning erkinligi, adolat, bilim olishga intilish va o'zaro hurmat kabi qadriyatlarga asoslangan bo'lishi kerak.

Dissertatsiyaning **“Mafkuraning ijtimoiy hayot jarayonlariga ta'siri va barqarorlikni mustahkamlashdagi o'rni”** deb nomlangan ikkinchi bobida mafkuraning ijtimoiy taraqqiyotdagi funksional xususiyatlari, iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy rivojlanishning yo'naltiruvchi omili sifatidagi ahamiyati, fuqarolik jamiyati institutlarining mafkuraviy targ'ibotdagi o'rni tahlil etilgan.

Hozirgi davrda ro'y berayotgan murakkab ijtimoiy, siyosiy o'zgarishlar dunyoda yangicha mafkuraviy jarayonlar tizimini shakllantirmoqda. Yer yuzidagi tinchlik, barqarorlik muammolari o'ta dolzarb, asosiy muammolarga aylanmoqda. Mamlakatimizda konstitutsiyaviy-huquqiy me'yorlar va qonunlar negizida ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy transformatsiyalar ro'y bermoqda. Bu esa demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishda barqarorlik, xavfsizlik va taraqqiyotning kafolatlarini ta'minlovchi muhim omil hisoblanadi. Lekin shu bilan bir vaqtda barqarorlikni, milliy xavfsizlikni ta'minlash uchun jamiyatimizni fuqarolari o'rtasida ijtimoiy totuvlikka intilish, ijtimoiy mushtaraklik mavjud bo'lishi kerak.

Tadqiqotda Yangi O'zbekistonni barqarorligi va olg'a qarab rivojlanishining asosi sifatida mafkura jamiyat ijtimoiy hayotida quyidagi muhim vazifalarni bajarishi asoslab berilgan:

- odamlarni muayyan g'oyaga ishontiradi hamda ularda harakatchanlikni rag'batlantiradi;
- insonlarni muayyan g'oyalar atrofida birlashtiradi;

- kishilik jamiyatini ma'lum bir g'oyalar tizmini amalga oshirish uchun safarbar etadi;

- kishilarni ma'naviy-ruhiy qo'llab-quvvatlaydi, g'oyaviy tarbiyalaydi va immunitetni shakllantiradi;

- harakat dasturi sifatida namoyon bo'ladi.

Mafkuraning birlashtiruvchi, cheklovchi, tuzilmashtiruvchi, dunyoqarashli va gnoseologik vazifalari to'g'risida so'z yuritganda muayyan ijtimoiy guruhni faol harakatlarga va o'z o'zini tashkil etishga undashi nazarda tutiladi¹⁰. Guruh a'zolari ongiga ma'no, qadriyat, ahamiyat, tanlanganlik baxsh etish jipslikni ta'minlaydi. Mafkura jamiyatni birlashtirib yoki tarqatibgina qolmasdan jamiyatni tuzishi yoki qayta shakllantirishi ham mumkin. Bular ikki yoqlama holda jamiyatni "o'zimizniki" va "begonalarga" ajratadi¹¹.

Dissertatsiyada guruhlariga xos bo'lgan g'oyalar, e'tiqod va tafakkur ko'rinishlarini yaratuvchisi bo'lgan holda mafkura o'z imkoniyatlari doirasida gnoseologik vazifani ham bajarishi qayd etilgan. "Soxta ong" va g'arazli tafakkur sifatidagi mafkura guruhlarining ijtimoiy xatti-harakati, rag'batning aqlga sig'maydigan shakllarini amalga oshiradi¹². Mafkuraviy immunitetni shakllantirishda oila, ta'lim muassasalari va jamiyatning roli beqiyosdir. Oila muhitida milliy qadriyatlar, axloqiy me'yorlar va vatanparvarlik tuyg'ularini singdirish orqali shaxsda mustahkam poydevor yaratiladi. Ta'lim muassasalarida esa tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, turli g'oyalarga nisbatan tahliliy yondashuvni shakllantirish muhim ahamiyatga ega.

Mafkura tuzilmasini olam, jamiyat, shaxs, individning koinotdagi vazifasi va ahamiyati, dunyoda inson hayotining ma'nosi xususidagi falsafiy, ilmiy, siyosiy, estetik, axloqiy, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy bilimlarning yagona, tarixiy tizimi sifatida ifodalash mumkin. *Mafkura – bu ijtimoiy jabhalarning shakllanishi va taraqqiyotini yo'naltiruvchi bilimlar va qadriyatlar majmuidir.* Mafkuraviy bilimlar va qadriyatlar jamiyat hayotining ma'naviy, davlat, iqtisodiy, ijtimoiy va oila turmush sohalaridagi shaxslarning faoliyatini tashkil qiladi, tartibga soladi, yo'naltiradi va birlashtiradi, bir turli mafkuraga ega mamlakatlarni birlashtiradi.

Yangi O'zbekistonda uchinchi Renessans g'oyasi ham o'z mohiyatiga ko'ra yangi mafkuraviy yo'nalish bo'lib, u O'zbekistonning intellektual va ma'naviy salohiyatini tiklashga, yosh avlodni bilimli, ma'rifatli va vatanparvar qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bu g'oya jamiyatni modernizatsiya qilish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va mamlakatning xalqaro maydondagi o'rnini mustahkamlash kabi muhim vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi. Shu bois mamlakatimizda jamiyat ijtimoiy hayotining asoslariga yangicha qarash shakllanib, uning huquqiy asoslari yaratildi. Hech bir mafkuraning davlat mafkurasi sifatida o'rnatilishi mumkin emasligi konstitusiyaviy asoslar bilan mustahkamlab qo'yildi¹³.

¹⁰ Белявский Ю.А. Идеологические разломы в массовом сознании российского общества. / Социология власти. – Москва, 2010. - №2. – С.23

¹¹ Грицков Ю.В., Львов, Д.В. Архетипические истоки двойных стандартов в организационной культуре // Человеческий капитал. – Москва, 2011. - №8. – С. 55-58.

¹² Грицков Ю.В., Львов, Д.В. Архетипические истоки двойных стандартов в организационной культуре // Человеческий капитал. – Москва, 2011. - №8. – С. 55-58.

¹³ Каримов И.А. Ўзбекистоннинг ўз истиклол ва тараққиёт йўли. - Тошкент.: "O'zbekiston". 1992. – В. 34.

Dissertant mulohazalariga ko'ra, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyotga mafkuraning ta'siri bundan keyin ham barcha joyda sezilib turadi. Mafkura axloqiy-me'yoriy qadriyatlarni belgilaydi, ijtimoiy xulq-atvor mezonlarini shakllantiradi. Bu orqali u ijtimoiy hayotda tartib va intizomni saqlaydi. Mafkura shaxs va jamiyatni muayyan harakatlarga undaydi, intilish va umid uyg'otadi. Bu jihatdan u inson faoliyatiga ma'naviy kuch baxsh etuvchi manba bo'lib xizmat qiladi. Mafkura mavjud holatni tanqidiy tahlil qiladi, muqobil g'oyalarni ilgari suradi va jamiyatni rivojlanishga undaydi. Bu jihatdan mafkura falsafaning dialektik va tanqidiy ruhini o'zida mujassam etadi. Mafkura kelajak jamiyatini tasavvur qilish, unga yo'nalish berish funksiyasini bajaradi. Bu orqali u jamiyat taraqqiyotining strategik yo'nalishini belgilaydi. Mafkura ijtimoiy taraqqiyotning ideallashtirilgan modelidir. U tarixiy tajriba, ma'naviy qadriyatlar va g'oyaviy yo'nalishlar orqali jamiyat hayotini anglash, baholash va shakllantirish vositasidir. Ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlarni amalga oshirish, aholining muhtoj qatlamlariga yordam ko'rsatish, ekologiya, ta'lim, madaniyat sohalarida hamkorlik davlatning resurslarini va fuqarolik jamiyati tashkilotlarining tajribasini birlashtirib, ijtimoiy muammolarni hal etishda yanada samarali natijalarga erishishga imkon beradi.

Dissertatsiyaning **“Yangi O'zbekistonda strategik islohotlarning ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashdagi o'rni”** deb nomlangan uchinchi bobida Yangi O'zbekistonda strategik islohotlarning mafkuraviy hayotga konstruktiv ta'siri, ma'rifiy jamiyatni barpo etishda mafkurani takomillashtirish imkoniyatlari tahlil etilgan.

Dissertantning fikricha, O'zbekistonning rivojlanish strategiyalari jamiyat mafkuraviy hayotdagi o'zgarishlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu o'zgarishlar strategiyalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishida muhim omil bo'lgan. Jamiyat mafkuraviy hayotni yangilash, milliy g'oyani mustahkamlash, yosh avlodni tarbiyalash, ommaviy axborot vositalari, ta'lim, madaniyat va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini oshirish orqali O'zbekistonning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

